

Birinchi kurs faollariga munosib rag'bat

GIM fakulteti SXMIM yo'nalishi 1-kurs 1-guruh talabalari orasida ikki oylik reyting bo'yicha eng faol talabalar fakultet dekani B.Norov tomonidan faxriy yorliq bilan taqdirlandilar.

Guruhda o'z faolliligi bilan ajralib turgan talabalarimizga institutimiz Kasaba uyushma qo'mitasi raisi F.Irisovning "Kasaba uyushmasi faoli" nishoni hamda, faxriy yorlig'i topshirildi. Ikki oy mobaynida guruhni birlashtirgan, butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan guruh sardoriga "Eng yaxshi guruh sardori" nominatsiyasi bo'yicha nishon va faxriy yorliq topshirildi.

Bundan tashqari guruhning ma'naviy ishlari bo'yicha bir guruh faollariga aynan shunday faxriy yorliqlar berildi. O'qish davrining har ikki oyligi reytingi bo'yicha olib borilishi yil davomida yo'lga qo'yilgan nominatsiyalar taqdirlashi davom etadi.



"Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" kafedrasida stajyor-o'qituvchisi Sarvinoz Xolova axboroti
Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov